
Hurmatli tumanimiz hududidagi korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalari rahbarlari!

Joriy yilning 10-iyunidan 10-sentabriga qadar yurtimizda Vazirlar Mahkamasi Ma'naviyat va Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan "Qadring baland bo'lsin ona tilim" tanlovining "Davlat tili ustuvorligi ta'minlangan eng namunalidir" nominatsiyasi bo'yicha tanlov e'lon qilingan.

Mazkur tanlovda tumanimiz reytingini ko'tarishda SiZLARning ko'magingiz va qo'llab-quvvatlashlaringiz muhim ahamiyat kasb etadi. SiZLARDAN tayorlanayotgan har qanday hujjat va ma'lumotlaringizni Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosida xatolarsiz tayyorlashingizni so'raymiz.

Shuningdek: Mehnat jamoalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishni targ'ib etish; Hududlarda idora va tashkilotlar nomlari (peshlavhalar), joy nomlari, reklama e'lonlari, savdo, xizmat ko'rsatish obyektlari nomlari, yo'l (manzil) va jamoat transportlari ko'rsatkichlari matnining davlat tilida xatosiz yozilishiga erishish; Savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini o'zbekcha nomda ro'yxatga olishni rag'batlantirish; Mehnat jamoalaridagi turli millat va elatlar vakillarining davlat tilini o'rganishi uchun qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshiringiz talab etiladi.

Toshloq tumani hokimligi.

2021-06-14 17:34:52